

Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha mazkur Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT - 2008) konsepsiyalari va “Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar – 2008”, “Turizm yordamchi hisoblari: tavsiya qilingan uslubiy asos – 2008” kabi xalqaro andozalarga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan turizm yordamchi hisobi (keyingi o'rinlarda – TYOH)ni shakllantirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

turizm yordamchi hisobi – tegishli ko'rsatkichlar yordamida turizm tarmog'idagi maxsus ma'lumotlarni qo'shimcha tahlil qilish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchalar, tasniflar, ta'riflar, jadvallar va umumlashtirilgan ko'rsatkichlarning xalqaro miqyosda qabul qilingan tizimi.

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

turizm tarmog'i – turizm tarmog'i va odatiy sayyohlik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turlari yig'indisi;

turizm tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar turistlar uchun mo'ljallangan yoki

mo'ljallanmaganligidan qat'iy nazar, turizm tarmog'iga kiruvchi barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisidir;

turizm tashrif buyuruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan safarlardir;

tashrif buyuruvchi – bu o'zining odatiy muhitidan biror-bir belgilangan asosiy joyga, tashrif buyurayotgan mamlakatda yoki hududda ro'yxatga olingan korxonaga ishga joylashish maqsadidan tashqari, har qanday asosiy maqsad (xizmat safari, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsad)ni ko'zlab, bir yildan kam bo'lgan muddatga safarni amalga oshiruvchi sayohatchi;

xorijlik tashrif buyuruvchi – o'zi yashaydigan mamlakatdan xorijga safar qiluvchi shaxs;

ichki tashrif buyuruvchi – o'zi yashaydigan mamlakat hududida safar qiluvchi shaxs;

bir kunlik tashrif buyuruvchi – o'zining odatdagi turar joyidan boshqa biror joyga qisqa muddatga va tunab qolishsiz safar qiluvchi shaxs;

turist tashrif buyurgan mamlakatda jamoaviy va yakka tartibdagi joylashtirish obyektlarida kamida bir kecha tunab qoladigan tashrif buyuruvchidir;

kirishga oid turizm ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lmagan tashrif buyuruvchining kiruvchi sayyohlik safari vaqtida ushbu mamlakat doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi;

chiqishga oid turizm ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidan tashqariga chiquvchi sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi;

ichki turizm ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidagi ichki yoki chiquvchi sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi.

milliy turizm ichki va chiquvchi turizmni, ya'ni ko'rilayotgan mamlakatda doimiy yashovchi bo'lgan tashrif buyuruvchilarning ushbu mamlakat hududidagi va uning tashqarisidagi ichki yoki chiquvchi sayyohlik safarlariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi;

kirishga oid turizm bo'yicha iste'mol norezident tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidagi iste'molini o'z ichiga oladi;

chiqishga oid turizm bo'yicha iste'mol rezident tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidan tashqaridagi iste'molini o'z ichiga oladi;

ichki turizm bo'yicha iste'mol rezident tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidagi iste'molini o'z ichiga oladi;

mamlakat ichidagi turizm bo'yicha iste'mol rezident va norezident tashrif buyuruvchilarning mamlakat iqtisodiy hududidagi iste'molini o'z ichiga oladi;

2-bob. Turizm statistikasi

2. Turizm statistikasi tashrif buyuruvchilar oqimini, joylashtirish ob'ektlarini, sayohat xususiyatlarini. Turizm statistikasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- odatdagi muhit;
- dam olish uylari;
- tashrif buyurish davomiyligi;
- safarning asosiy maqsadi;
- turistik iste'mol xarajatlari.

3. Odatdagi muhit shaxsning kundalik hayotida yashaydigan geografik chegaralariga mos maskanlari hisoblanadi. Odatdagi muhit yashash joyi joylashgan muayyan hudud va shaxs tomonidan doimiy tashrif buyuriladigan barcha joylarni o'z ichiga oladi. "Odatdagi muhit" tushunchasidan foydalanishdan asosiy maqsad "tashrif buyuruvchi" tushunchasidan har kun yoki har hafta o'z uyi, ish va o'qish joyi yoki boshqa tez-tez tashrif buyuriladigan joylar o'rtasida safar qiluvchi shaxslarni chiqarib tashlashdan iborat.

4. "Odatdagi yashash joyi" tushunchasi biror bir mamlakatga (joyga) safar qiluvchini tashrif buyuruvchi yoki "Boshqa sayohatchi" ekanligini va agar bu shaxs tashrif buyuruvchi hisoblansa, u ushbu mamlakatda yoki boshqa mamlakatda yashashini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi.

5. Odatdagi muhit ikkita ko'rsatkich asosida aniqlanadi:

- tez-tez takrorlanish: shaxs tez-tez tashrif buyuradigan joylar (odatdagi sharoitlarda), agar bu joylar uning yashash joyidan ancha uzoq bo'lsa ham, uning odatdagi muhitining bir qismi hisoblanadi;

- masofa: shaxsning yashash joyiga yaqin bo'lgan joylar, agar bu yerga kam tashrif buyurilsa ham, odatdagi muhitning bir qismi hisoblanadi.

6. Har bir uy xo'jaligi odatda unda o'tkazgan vaqtiga qarab asosiy yashash joyiga va dam olish uylariga ega bo'lishi mumkin. Doimiy yashash joyi uy xo'jaligi hamda uning barcha a'zolarining odatdagi yashash joyi hisoblanadi. Boshqa barcha yashash joylari (uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan, o'rta yoki uzoq muddatga ijaraga olingan yashash joylari) ikkinchi uy sifatida qaraladi.

7. Dam olish uylari sifatida foydalaniladigan (asosan ko'ngil ochish maqsadlarida tashrif buyuriladigan) ikkinchi uylar, ular odatdagi yashash joyiga yaqinligidan, tez-tez tashrif buyurilishidan va bu yerda bo'lish davomiyligidan (bu yerda bo'lish davomiyligi asosiy yashash joyidagidan ko'p bo'lmagan holda) qat'iy nazar, "odatdagi muhit" tushunchasiga kiritilmaydi.

8. Tashrif buyurish davomiyligi. Agar tashrif buyurilayotgan joyda uzluksiz bo'lish muddati bir yildan oshmasa, bunday tashrif buyuruvchi turistik faoliyat ishtirokchisi hisoblanadi. Agar tashrif buyuruvchi u yoki bu joyda bir yildan ko'p bo'lsa, u holda bu joy odatdagi muhitning bir qismiga aylanadi va bu shaxs ushbu joyda tashrif buyuruvchi sifatida qaralmaydi.

Tashrif buyurish davomiyligiga ko'ra, tashrif buyuruvchilar ikki guruhga bo'linadi: tashrif buyurilgan joyda bir sutka yoki undan ortiq vaqt o'tkazgan

tashrif buyuruvchilar (turistlar) va tashrif buyurilgan joyda bir sutkadan kam vaqt o'tkazgan bir kunlik tashrif buyuruvchilar.

9. Safarning asosiy maqsadi – amalga oshirilgan safar turistik faoliyatga tegishli ekanligini va safarni amalga oshiruvchi shaxs tashrif buyuruvchi ekanligini aniqlashda asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Agar safarning asosiy maqsadi ishga joylashish va daromad olish bo'lsa, safar turistik faoliyat sifatida qaralmaydi, safarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs esa tashrif buyuruvchi hisoblanmaydi va “Boshqa sayohatchi” sifatida tavsiflanishi kerak.

Safar maqsadlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Shaxsiy maqsadlar:

- 1.1. dam olish, hordiq, ko'ngil ochish;
- 1.2. tanishlar va qarindoshlarnikiga tashrif buyurish;
- 1.3. o'qish va kasbiy tayyorgarlik;
- 1.4. sog'liqni saqlash va davolanish;
- 1.5. diniy/ziyosat;
- 1.6. xarid qilish;
- 1.7. tranzit;
- 1.8. boshqa maqsadlar.

2. Ishga va kasbga oid maqsadlar:

2.1. majlislar, konferensiyalar, kongresslar, savdo yarmarkalari va ko'rgazmalar ishida qatnashish; korxona xodimlari uchun rag'batlantiruvchi safarlar;

- 2.2. ma'ruza va konsertlar bilan chiqish qilish;
- 2.3. turistik safarlar dasturini tayyorlash;
- 2.4. joylashtirish va transport bo'yicha shartnomalar tuzish;
- 2.5. professional sport tadbirlarida qatnashish;

2.6. hukumat ishlariga doir xizmat safarlari, jumladan, diplomatlar, harbiy xizmatchilar yoki xalqaro tashkilotlarning xodimlari safarlari (tashrif buyurilayotgan mamlakatga doimiy ishlash maqsadida borish holatlari bundan mustasno);

2.7. boshqa maqsadlar.

10. Turistik xarajatlar belgilangan joyga safar qilish va u yerda bo'lish davomida hamda safarga tayyorgarlik ko'rishda tashrif buyuruvchi yoki uning nomidan boshqa kishi tomonidan amalga oshiriladigan iste'mol xarajatlarning umumiy yig'indisidir. Turistik xarajatlar hajmi tovar va xizmatlarga sarflangan haqiqatdagi xarajatlar, jumladan, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar va boshqalarni qo'shgan holda aniqlanadi. Bunda to'lov istalgan shaklda bo'lishi mumkin (naqd pul, yo'l cheklari, kredit kartalari va boshqalar).

11. Turistik xarajatlar iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lmagan to'lovlarni o'z ichiga olmaydi. Bunday xarajatlar jumlasiga soliqlar, bank foizlarini to'lash, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni sotib olish, xayr-ehson qilish maqsadida amalga oshirilgan naqd pul o'tkazmalari va boshqa shaxslarga hadya qilish, qayta sotish maqsadida tovarlar sotib olish va boshqalar kiradi.

12. Turistik iste'mol. TYOH doirasida turistik iste'mol turistik xarajatlarga qaraganda kengroq tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha turistik xarajatlardan tashqari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barter operatsiyalarining shartli hisoblangan qiymati (masalan, dam olish maqsadida yashash joylarini vaqtincha almashtirish);

- odatdagi muhitdan tashqaridagi dam olish uylarida o'z hisobidan (bog'dorchilik, ovchilik, baliq ovlash va hokazolar natijasida) ishlab chiqarilgan tovarlar (sabzavotlar, mevalar, yovvoyi hayvonlar go'shti, baliq va hokazolar) ning shartli hisoblangan qiymati;

- dam olish davrida o'z hisobidan ta'minlanadigan yashash (dam olishga mo'ljallangan ikkilamchi yashash joylari va dam olish uylariga egalik qilishning boshqa noan'anaviy shakllari) bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar (bozor xizmatlari va yakka tartibdagi yakuniy iste'mol uchun mo'ljallangan xizmatlar) qiymati;

- turistlarni qabul qiluvchi tomonning qo'shimcha xarajatlari (ovqatlanish, kommunal xizmatlar to'lovlari, taklifnomalarni rasmiylashtirish, sovg'alar sotib olish va boshqalarga sarflangan xarajatlarning ko'payishini hisobga olgan holda);

- ishlab chiqaruvchilarning (tijorat korxonalari, davlat boshqaruvi organlari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari) xodimlarni xizmat safariga yuborish bilan bog'liq (xodimlar tomonidan to'lanishi ko'zda tutilmagan) xarajatlari (tashuvchilar tomonidan o'z xodimlariga bepul yoki imtiyozli narxlarda transport xizmatlarini ko'rsatish, mehmonxonalar tomonidan o'z xodimlariga bepul yoki imtiyozli narxlarda yashash joylari yoki ovqatlanish bilan ta'minlash xizmatlari va boshqalar);

- ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'z xodimlariga va ularning oilalariga tashrif buyuruvchilar sifatida qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq sof boshqa xarajatlar (ya'ni, xodimlarga pul ko'rinishidagi to'lovlarni hisobga olmagan holda xarajatlar qiymati). Bunda, turistik xarajatlar tarkibida bo'lgan xarajatlar (ish beruvchi tomonidan bepul yoki imtiyozli narxlarda ko'rsatilgan transport xizmatlari, dam olish markazlarida yashash qiymati) kiritilmaydi;

- MHT-2008 qo'llanmasi tavsiyasiga binoan davlat boshqaruvi organlarining iste'moli maqsadida ta'lim, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, muzey faoliyati, ko'ngil ochar xizmatlar va boshqa sohalarda yakka tartibdagi nobozor xizmatlarini ko'rsatish xarajatlarning bir qismi. Bu xarajatlar tashrif buyuruvchilar manfaati nuqtai nazaridan imtiyozli xizmat ko'rsatish sifatida qaralishi mumkin va MHT-2008 qo'llanmasida natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar sifatida tavsiflanadi.

13. Turistik iste'mol turistik xarajatlar kabi uyushmagan tashqi savdo bilan shug'ullanish maqsadida tovarlar xarid qilishni o'z ichiga olmaydi. Bunday xaridlar tashrif buyuruvchining yakka tartibdagi iste'moliga kirmaydi, chunki xaridni amalga oshirgan tashrif buyuruvchi o'zining odatdagi muhitiga qaytganidan so'ng ushbu tovarlarni sotishni maqsad qiladi.

14. TYOH jadvallari tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasida yilda bir marta davriylikda amalga oshiriladi.

15. Turizm yordamchi hisobini shakllantirishda statistika hisoboti ma'lumotlari, uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari, tashrif buyuruvchilar kuzatuv so'rovnomasi ma'lumotlari va ma'muriy ma'lumotlardan foydalaniladi (1-ilova).

3-bob. Turizm tarmog'i mahsulotlari va tarmoqlari tasnifi

16. TYOH turizm statistikasi sohasidagi ma'lumotlarni tovar va xizmatlarning talab va taklifiga bog'liq holda muvofiqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

17. TYOHni shakllantirish turizm bozorida taklif qilinadigan muayyan tovar va xizmatlar, mahsulotlar va iqtisodiy faoliyat turlarining alohida tasnifidan foydalangan holda aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Turizm tarmog'i mahsulotlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Iste'mol mahsulotlari, jumladan:

1.1. odatiy turistik mahsulotlar, ikki toifaga bo'linadi:

1.1.1. xalqaro darajada solishtiriladigan odatiy turistik mahsulotlar;

1.1.2. alohida davlatlar uchun xarakterlanadigan, milliy an'analarni inobatga olgan holda, mustaqil ravishda belgilanadigan odatiy turistik mahsulotlar.

1.2. boshqa iste'mol mahsulotlari, mamlakat tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va ikki guruhga bo'linadi:

1.2.1. turizm bilan bog'liq mahsulotlar, turizm tarmog'i tahlili uchun ahamiyatli va odatiy turistik mahsulotlar mezonlariga mos kelmaydi;

1.2.2. turizm bilan bog'liq bo'lmagan iste'mol tovarlari, yuqoridagi sanab o'tilgan toifalarga aloqador bo'lmagan barcha boshqa iste'mol tovarlari va xizmatlarini o'z ichiga oladi.

2. Noiste'mol mahsulotlari, o'z xususiyatiga ko'ra iste'mol tovarlari va xizmatlariga aloqador bo'lmagan barcha mahsulotlar, tashrif buyuruvchilar o'z safari davomida xarid qilishlari mumkin bo'lgan qimmatliklar bundan mustasno.

Odatiy turistik mahsulotlar quyidagi talablardan hech bo'lmaganda biriga javob berishi kerak:

- turistik mahsulotga xarajat umumiy turizm xarajatlarning ahamiyatli qismini tashkil etishi;

- mahsulotga turizm xarajati ushbu mahsulot taklifiga xarajatlarning ahamiyatli qismini tashkil etishi.

Turizm tarmog'i va turizm tarmog'idagi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari mahsulotlari tasnifi 2-ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan "Turizm tarmog'i"ning yig'ilgan guruhiga muvofiq shakllantiriladi.

4-bob. TYOHning tuzilishi

18. TYOH turizm tarmog'ida qanday resurslar yaratilayotganligini va mahsulotlar qanday iste'mol qilinayotganligini ifodalovchi jadval ko'rinishida shakllantirilgan statistika ko'rsatkichlari tizimini o'zida aks ettiradi.

TYOH 9 ta jadvaldan tarkib topgan bo'lib, ulardan birinchi oltitasi turizmga oid bo'lgan taklif va iste'molni pul ko'rinishida tavsiflab beradi, qolganlari bandlik va asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi bo'yicha ko'rsatkichlarni ifodalaydi:

1-jadval. Mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari bo'yicha kirishga oid turizm iste'moli (keyingi o'rinlarda 1-jadval);

2-jadval. Mahsulotlar turlari, tashrif buyuruvchilar toifalari va safarlar turlari bo'yicha ichki turizm xarajatlari (keyingi o'rinlarda 2-jadval);

3-jadval. Mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari bo'yicha chiqishga oid turizm xarajatlari (keyingi o'rinlarda 3-jadval);

4-jadval. Mahsulotlar turlari bo'yicha mamlakat ichidagi turizm iste'moli (keyingi o'rinlarda 4-jadval);

5-jadval. Turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi (keyingi o'rinlarda 5-jadval);

6-jadval. Mamlakat ichidagi turizm bo'yicha ichki taklif va iste'molning umumiy hajmi (keyingi o'rinlarda 6-jadval);

7-jadval. Turizm tarmoqlarida bandlik (keyingi o'rinlarda 7-jadval);

8-jadval. Turizm sohasidagi turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi (keyingi o'rinlarda 8-jadval);

9-jadval. Turizm turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida safarlar va tunab qolingan kechalar soni (keyingi o'rinlarda 9-jadval).

19. O'zbekiston milliy statistika amaliyotida turizm talab va taklif tomonidan hisobga olinadi.

Turizmni talab tomonidan hisobga olish muayyan joylarda kirishga oid, chiqishga oid va ichki turizm bo'yicha tashrif buyuruvchilarni kuzatish asosida amalga oshiriladi. Kirishga va chiqishga oid turizm bo'yicha tashrif buyuruvchilarning kuzatuv norezident tashrif buyuruvchilarning mamlakatdan chiqib ketish vaqtida va rezident tashrif buyuruvchilarning mamlakatga kirib kelish vaqtida sarflagan xarajatlari keng ko'lamli hisobga olinadigan mamlakat chegaralari (aeroport, temir yo'l vokzali, avtomobil transporti va piyodalar yuradigan yo'llarning mamlakat chegaralari kesishadigan joylari)da amalga oshiriladi.

Ichki turizmdagi rezidentlar tomonidan amalga oshirilgan safarlar sonini hisobga olish uchun uy xo'jaliklari bo'yicha alohida kuzatuv o'tkaziladi. Kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlar ichki turizm bo'yicha xizmatlar hajmini hisoblashda foydalaniladi.

Taklif tomonidan hisobga olishda statistika ma'lumotlar turizm tarmog'iga tegishli sub'ektlar tomonidan taqdim etiladigan yillik statistika hisobotlari asosida shakllantiriladi.

Taklif tomonidan hisobga olish sub'ektlari bo'lib, mehmonxonalar, turistik agentliklar, turoperatorlar, ovqat va ichimliklarni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar, savdo korxonalari, yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanuvchi transport korxonalari (havo, temir yo'l, suv, quruqlik transporti va boshqalar) va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar hisoblanadi.

20. Ma'muriy ma'lumotlar. TYOHni shakllantirishda ma'muriy ma'lumotlar statistikasi alohida ahamiyat kasb etadi. TYOHni shakllantirishda ma'muriy ma'lumotlar sifatida mamlakat chegaralarini kesib o'tuvchi rezident va norezident tashrif buyuruvchilar oqimi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasiga kiruvchi va chiquvchi shaxslar soni haqidagi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlari va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazining ma'lumotlaridan foydalaniladi. Shuningdek, turizm tarmoqlarida yakka tartibdagi tadbirkorlikda bandlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

21. 1,2-jadvallar turizm turlari, mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifasi bo'yicha turizm iste'molini qiymat ko'rinishida baholash va tahlil qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu jadvallar turizm iste'molining muhim qismi – tashrif buyuruvchilarning turistik xarajatlardan tashkil topgan bo'ladi.

Turistik xarajatlarning hajmi va tarkibi turistlar va ekskursantlar uchun alohida aniqlanadi.

Ichki turizm bilan bog'liq xarajatlarga nafaqat O'zbekiston Respublikasi bo'ylab ichki sayohat davomida tovar va xizmatlarga qilingan xarajatlar, balki chet elga sayohatga ketayotgan O'zbekiston fuqarolarining mamlakatdagi tovarlar va xizmatlarga qilgan xarajatlari ham kiritiladi.

Kirishga (chiqishga) oid turizm bo'yicha iste'molning umumiy hajmi quyidagicha aniqlanadi: har bir safar maqsadi bo'yicha bir kecha tunab qolish va bir kunlik tashrif buyuruvchilar safari uchun muayyan turistik mahsulotlarga sarflangan o'rtacha xarajatlar qiymati aniqlanadi. Safarda bo'lishning o'rtacha davomiyligidan kelib chiqqan holda, umumiy davomiylilik aniqlanadi. Safarda bo'lishning umumiy davomiyligini xarajatlarning o'rtacha qiymatiga ko'paytirish orqali kirishga (chiqishga) oid turizm bo'yicha jami iste'mol hajmi aniqlanadi.

$$(1) \quad V = \sum_{i=1}^n \left(\frac{e_i}{q_i} \times Q_i \right),$$

V – kirish (chiqish) turizmiga oid tashrif buyuruvchilarning jami xarajatlari;

e_i – tashrif buyuruvchilar kuzatuv so'rovnomasi ma'lumotlariga asosan i - safar maqsadi bo'yicha tashrif buyuruvchilarning jami xarajatlari;

q_i – tashrif buyuruvchilar kuzatuv so'rovnomasi ma'lumotlariga asosan i - safar maqsadi bo'yicha tashrif buyuruvchilarning jami soni;

Q_i – kirish (chiqish) turizmiga oid tashrif buyuruvchilar oqimi bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha i - safar maqsadiga ko'ra tashrif buyuruvchilarning umumiy soni;

n – safar maqsadlari turlari soni.

$$(2) \quad \overline{V}_j = \frac{V_j}{Q_j},$$

$\overline{V}_j$ – j mamlakat bo'yicha kirish (chiqish) turizmiga oid bitta tashrif buyuruvchining o'rtacha xarajatlari;

V_j – j mamlakat bo'yicha kirish (chiqish) turizmiga oid tashrif buyuruvchilarning jami xarajatlari;

Q_j – kirish (chiqish) turizmiga oid tashrif buyuruvchilar oqimi bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga ko'ra j mamlakat bo'yicha tashrif buyuruvchilarning umumiy soni.

$$(3) \quad \overline{W} = \frac{\sum_{j=1}^m (\overline{V}_j \times Q_j)}{M},$$

$\overline{W}$ – kirish (chiqish) turizmiga oid bitta tashrif buyuruvchining o'rtacha xarajatlari;

M – rasmiy ma'lumotlarga kirish (chiqish) turizmiga oid mamlakatlar bo'yicha tashrif buyuruvchilarning umumiy soni;

m – hisobga olinadigan mamlakatlar soni.

22. **3-jadval** chiqishga oid turizm bo'yicha mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifasi bo'yicha turizm iste'molini qiymat ko'rinishida baholash va tahlil qilish uchun mo'ljallangan.

23. **4-jadval** ichki turizm, kirishga oid turizm bilan bog'liq xarajatlarni (1-jadval) va ichki turizm bilan bog'liq xarajatlarni (2-jadval), shuningdek, turizm iste'molining boshqa tarkibiy qismlari (dam olish vaqtida o'z mablag'lari hisobidan yashash, natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar va boshqa turdagi shartli hisoblangan iste'mol)ni birlashtiradi.

24. **5-jadval** "Xarajatlar va ishlab chiqarish" usulida tuzilgan balans bo'lib, turizm tarmoqlari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hisobini ifodalaydi. Jadvalning satrlari mahsulot turlarini, ustunlari turizm va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ifodalaydi. Shuningdek, jadvalda oraliq iste'mol (yoki oraliq xarajatlar, deb nomlanadi) sotib oluvchilar narxlarida ko'rsatilgan.

Mamlakat ichidagi turizm bo'yicha ichki taklif turizm tarmoqlarining jami ishlab chiqarishi hisoblanadi. Turizm tarmoqlari bo'yicha oraliq iste'mol hajmi korxonalar xarajatlari to'g'risida aniqlik kiritilgan oxirgi ma'lumotlar asosida hisoblanadi. Turizm tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi shu tarmoqlarning ishlab chiqarishi va oraliq iste'moli o'rtasidagi farq asosida aniqlanadi.

Mazkur jadvalning taklif qismi 1-xizmat shakli (yillik) "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar to'g'risida",

1-korxona shakli (yillik) “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”, 1-KB shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti”, 1-NNT shakli (yillik) “Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to‘g‘risida hisobot”, 1-notijorat shakli (yillik) “Notijorat tashkilotining faoliyati to‘g‘risida hisobot” kabi statistika hisobotlari ma‘lumotlari asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

25. 6-jadval TYOH tizimining markazi hisoblanadi. Ushbu jadval mamlakat ichidagi turizm bilan bog‘liq talab va taklif o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. 6-jadvalda mamlakat ichidagi turizm iste‘moli (4-jadval) va rezident ishlab chiqaruvchilarning taklifini (5-jadval) umumlashtiradi. Bu holat bevosita turizmda yaratilgan asosiy narxlardagi yalpi qo‘shilgan qiymat miqdorini aniqlash imkonini beradi.

Mamlakat ichidagi turizmga tegishli iste‘mol ulushi taklifning har bir tarkibiy qismida alohida aniqlanadi. Buning uchun jadvalning birinchi ikkita qismining har bir ustuni bilan bog‘liq “Turizm ulushi” qo‘shimcha ustuni kiritilgan.

Xizmatlarni aks ettiruvchi birinchi qismdagi ustunlarning har bir satrida turizm ulushining umumiy hajmi ustunlarining oxirgi qismida aks ettiriladigan mamlakat ichidagi turizmga tegishli iste‘mol hajmiga teng miqdorda hisoblanadi.

Har bir tarmoqning ishlab chiqarish hajmida turizmning ulushi aks ettiriladi va keyin turizm tarmog‘i va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining ulushi qo‘shib chiqiladi. Turistik mahsulotlar turlari bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘tkazilgan kuzatuv ma‘lumotlari asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, har bir tarmoq bo‘yicha ishlab chiqarish, oraliq iste‘mol va qo‘shilgan qiymatdagi turizmning ulushi aniqlanadi. Har bir alohida tarmoqning yalpi qo‘shilgan qiymatida (asosiy narxlarda) mamlakat ichidagi turizm ulushini belgilab olishi mumkin. Bu qiymatlar turizm tarmoqlari va iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlari bo‘yicha umumlashtirilishi mumkin.

Mamlakat ichidagi turizmga tegishli iste‘mol haqidagi ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan turizm tarmoqlarining joriy narxlardagi qo‘shilgan qiymatlari yig‘indisiga turizmga tegishli bo‘lgan, har bir mahsulot uchun mos ulushlardan foydalangan holda hisoblangan (chakana savdodagi savdo ustamasiga nisbatan ulushi hisoblanadigan tovarlar bundan mustasno) mahsulotlar va import uchun soliqlar (subsidiyalarni chegirib tashlagan holda) qo‘shiladi.

26. 7-jadval turizm tarmog‘idagi sayyohlik xizmatlarida ish bilan bandlikning miqdoriy bahosini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida turizm tarmoqlari kesimida korxonalar, band bo‘lganlar va ish o‘rinlari soni aks ettiriladi. Mazkur jadval 1-mehnat shakli (yillik) “Mehnat hisoboti”, 1-KB shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti”, 1-NNT shakli (yillik) “Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to‘g‘risida hisobot”, 1-notijorat shakli (yillik) “Notijorat tashkilotining faoliyati to‘g‘risida hisobot”

kabi statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi). Turizm tarmog'ida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni haqidagi ma'lumotlar Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

27. 8-jadval turizmdagi asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi to'g'risidagi ma'lumotlardan tashkil topadi. Bu ko'rsatkich hisobot davrida ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotib olingan asosiy fondlarning umumiy qiymatini aks ettiradi.

Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi bo'yicha ko'rsatkichlar 1-invest shakli (yillik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida", 1-KB shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti", 1-NNT shakli (yillik) "Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to'g'risida hisobot", 1-notijorat shakli (yillik) "Notijorat tashkilotining faoliyati to'g'risida hisobot" kabi statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

28. 9-jadvalda turizm turiga ko'ra sayohatlar soni, tashrif buyuruvchilar toifalari va tashrif davomiyligi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jadval barcha tashrif buyuruvchilar, jumladan, bir kunga tashrif buyuruvchilar tomonidan amalga oshirilgan safarlar va tunab qolingan kechalar sonini aks ettiradi. Bir kunga tashrif buyuruvchilar safarlari soni o'tkazilgan kuzatuvlar natijalari asosida, ya'ni bir kunga tashrif buyuruvchilar safarlari soni va jami tashrif buyuruvchilar safarlari o'rtasidagi nisbat asosida hisoblanadi. Olingan nisbat jami safarlar soniga tadbiq etiladi. Shu yo'sinda barcha tashrif buyuruvchilarning o'tkazgan kechalari soni hisoblanadi.

5-бoб. Якуний қондалар

29. Rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo'llash maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.


30. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019- yildagi 549-sonli "Turizm to'g'risidagi" Qonuni;
2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.;
3. Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год Руководство по составлению статистики (ООН, ЮНВТО), Мадрид и Нью-Йорк – 2010;
4. Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 год (ООН, ЮНВТО, Евростат, ОЭСР), Люксембург, Мадрид, Нью-Йорк, Париж, 2010 год;
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2012- yil 18- yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy nizom".

Turizm yordamchi hisobini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
1-ilova

Turizm yordamchi hisobini shakllantirish uchun ma'lumotlar manbalari



Turizm yordamchi hisobini
shakllantirish bo'yicha
uslubiy nizomga
2-ilova

1-jadval

**Mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari bo'yicha kirishga
oid turizm iste'moli**

(mln. so'm)

	Chiqishga oid turizm xarajatlari		
	Turistlar (Bir sutka yoki undan ko'proqqa tashrif buyuruvchilar)	Ekskursantlar (Bir kunga tashrif buyuruvchilar)	Jami tashrif buyuruvchilar
A. Iste'mol mahsulotlari			
A.1 Turizmga xos mahsulotlar			
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar			
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari			
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari			
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari			
5. Havo yo'lovchi transporti xizmatlari			
6. Transport vositalarini ijaraga berish			
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo'yicha xizmatlar			
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar			
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar			
A.2. Boshqa iste'mol mahsulotlari			
B. Boshqa mahsulotlar			
Jami			

2-jadval

Mahsulotlar turlari, tashrif buyuruvchilar toifalari va safarlar turlari bo'yicha ichki turizm iste'moli

(mln. so'm)

[illegible]

3-jadval

**Mahsulotlar turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari bo'yicha chiqishga
oid turizm xarajatlari**

(mln. so'm)

	Turistlar (Bir sutka yoki undan ko'proqqa tashrif buyuruvchilar)	Ekskursantlar (Bir kunga tashrif buyuruvchilar)	Jami tashrif buyuruvchilar
A. Iste'mol mahsulotlari			
A.1 Turizmga xos mahsulotlar			
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar			
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari			
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari			
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari			
5. Havo yo'lovchi transporti xizmatlari			
6. Transport vositalarini ijaraga berish			
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo'yicha xizmatlar			
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar			
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar			
A.2. Boshqa iste'mol mahsulotlari			
B. Boshqa mahsulotlar			
Jami			

4-jadval

Mahsulotlar turlari bo'yicha mamlakat ichidagi turizm iste'moli

(mln. so'm)

	Chiqishga oid turizm xarajatlari	Ichki turizm xarajatlari	Turizm iste'molining boshqa komponentlari	Mamlakat ichidagi turizmga oid xarajatlar
A. Iste'mol mahsulotlari				
A.1 Turizmga xos mahsulotlar				
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar				
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari				
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari				
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari				
5. Havo yo'lovchi transporti xizmatlari				
6. Transport vositalarini ijaraga berish				
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo'yicha xizmatlar				
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar				
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar				
A.2. Boshqa iste'mol mahsulotlari				
B. Boshqa mahsulotlar				
Jami				

5-jadval

Turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi

(mln. so'm)

	TURIZM TARMOQLARI										Boshqa tarmoqlar*	Ichki ishlab chiqaruvchilarning yalpi ishlab chiqarishi
	Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish xizmatlari	Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari	Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari	Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari	Havo yo'lovchi transporti xizmatlari	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	Turistik agentliklar v.b. xizmatlari	Madaniyat sohasidagi xizmatlar	Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar	Jami turizm tarmog'i		
A. Iste'mol mahsulotlari												
A.1 Turizmga xos mahsulotlar												
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar												
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari												
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari												
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari												
5. Havo yo'lovchi transporti xizmatlari												
6. Transport vositalarini ijaraga berish												
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo'yicha xizmatlar												
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar												
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar												
A.2. Boshqa iste'mol mahsulotlari												
B. Boshqa mahsulotlar												
Jami												

* mahsulotlarga sof soliqlarni qo'shgan holda

6-jadval (boshlanishi)

Mamlakat ichidagi turizm bo'yicha ichki taklif va iste'molning umumiy hajmi

[illegible]

6-jadval (yakuni)

(mln. so'm)

									Boshqa tarmoqlar*		Iqtisodiyot bo'yicha jami	
	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari		Madaniyat sohasi xizmatlari		Sport va dam olish xizmatlari		Jami					
	ishlab chiqarish hajmi	turizm ulushi	ishlab chiqarish hajmi	turizm ulushi	ishlab chiqarish hajmi	turizm ulushi	ishlab chiqarish hajmi	turizm ulushi	jami	turizm ulushi	Jami	turizm ulushi
A. Iste'mol mahsulotlari												
A.1 Turizmga xos mahsulotlar												
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar												
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari												
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari												
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari												
5. Havo yo'lovchi transporti xizmatlari												
6. Transport vositalarini ijaraga berish												
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo'yicha xizmatlar												
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar												
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar												
A.2. Boshqa iste'mol mahsulotlari												
B. Boshqa mahsulotlar												
Jami												

* mahsulotlarga sof soliqlarni qo'shgan holda

Turizm tarmoqlarida bandlik

	Bandlar soni, kishi				Yil oxiriga ish o‘rinlari soni, o‘rin*	Haqiqatda ishlangan soatlar, kishi soat*
	Yuridik shaxslarda		Yakka tartibdagi tadbirkorlikda			
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar		
A. Iste’mol mahsulotlari						
A.1 Turizmga xos mahsulotlar						
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar						
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari						
3. Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari						
4. Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari						
5. Havo yo‘lovchi transporti xizmatlari						
6. Transport vositalarini ijaraga berish						
7. Turistik agentliklar xizmatlari va boshqa bron qilish bo‘yicha xizmatlar						
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar						
9. Sport va dam olish bo‘yicha xizmatlar						
A.2. Boshqa iste’mol mahsulotlari						
V. Boshqa mahsulotlar						
Jami						

*) Yuridik shaxslarda

8-jadval

Turizm sohasidagi turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi

[illegible]

Turizm turlari kesimida safarlar va tunab qolingan kechalar soni

	Kirishga oid turizm		Ichki turizm		Chiqishga oid turizm	
	Turistlar (Bir sutka yoki undan ko‘proqqa tashrif buyuruvchilar)	Ekskursantlar (Bir kunga tashrif buyuruvchilar)	Turistlar (Bir sutka yoki undan ko‘proqqa tashrif buyuruvchilar)	Ekskursantlar (Bir kunga tashrif buyuruvchilar)	Turistlar (Bir sutka yoki undan ko‘proqqa tashrif buyuruvchilar)	Ekskursantlar (Bir kunga tashrif buyuruvchilar)
Safarlar soni						
Tunab qolingan kechalar soni	x		x		x	